

Sariosiyo aeroportida aviaqatnovlar tiklanadi



Prezidentning “Respublikada mahalliy aviaqatnovlarni rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori qabul qilindi. Hujjatga ko’ra:

hududlarni bir-biri bilan o’zaro bog’lash maqsadida 2023 yil mart oyidan boshlab Samarqand-Nukus, Samarqand-Mo’ynoq, Samarqand-Termiz, Buxoro-Termiz, Namangan-Termiz va Namangan-Nukus kabi yangi yo’nalishlarda muntazam aviaqatnovlarni boshlash;

Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarining turizm salohiyatini yanada oshirish maqsadida Shahrisabz va Sariosiyo aeroportlariga aviaqatnovlarni tiklash, shuningdek, Zomin aeroportiga aviaqatnovlarni yo’lga qo’yish;

aviaqatnovlar jadvalini yo’lovchilar uchun qulay bo’lgan temir yo’l, avtobus va mikroavtobus yo’nalishlari bilan integratsiyalash orqali yagona logistika tizimini yaratish choralarini ko’riladi.

Shuningdek, O’zbekistonning rezident aviakompaniyalariga ichki turizm yo’nalishlaridagi aviaqatnovlar uchun avia chipta narxining 25 foizi miqdorida respublika budgetidan subsidiya ajratish muddati 2026 yil 1 yanvarga qadar uzaytirildi.